



HAMID OLIMJON IJODIDA QOFIYANING O'RNI

Xoliqova Feruza
Termiz Davlat Universiteti
2 kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Hamid Olimjon she'riyatida badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanilgan. Shoir lirikasining takrorlarga boyligi, ayniqsa, leksik takrorlarning mahorat bilan qo'llanilganligi she'rning ta'sir kuchini yanada oshiradi. Hamid Olimjon she'riyatidagi badiiy takrorlar ohangdoshlikni ta'minlagan, tasvirning ifodaliligini oshirgan, mazmun va shakl uyg'unligini hosil qilgan

KIRISH

Hamid Olimjon o'z asarlarining tiliga katta ahamiyat bilan qaragan ijodkor. U har bir so'zga o'zining fikr ifodalash darajasiga alohida ahamiyat qaratadi. Hamid Olimjon ijodi xalqimizning boy merosi bo'lgan xalq og'zaki ijodi xalq dostonlarining go'zal an'analari bilan chambarchas bo'lib kelgan.

Hamid Olimjon asarlarini tahlil qilar ekanmiz, bu o'rinda adibning xilma-xil janrlarda yaratgan asarlari o'zbek xalqining turli davrlardagi turmush tarzini aks ettirib adabiyotimiz va tilshunosligimizda o'z hissalarini qo'shgan ijodkor.

Nutqda o'z fikrimizni bayon etish uchun tildagi barcha birliklardan foydalanamiz. Leksik birliklar ya'ni, so'zlarni tilshunoslikning bir qismi sifatida o'rganish so'zlarni nutqdan tashqaridagi o'z ma'nosi bilan birga ko'chma ma'noda qo'llash ham nutq ifodaliligini ta'minlash uchun tuganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko'chma ma'no ematsional -ekspressiv bo'yoqdorlik kasb etadi. Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma xil ko'rinishlari mavjud bo'lib ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'himlarning asosi ikki narsani qiyoslash usuli bilan olib boriladi.

Hamid Olimjon ijodidam ko'chimlarning turlarini uchratishimiz mumkin.

Tahlili

Hamid Olimjon ijodida „Semurg“ dostoniga nazar tashlaydigan bo'lsak „Semurg“ dostonida ijodkor juda ko'p ko'chim va dialektizmlardan foydalangan. Masalan:

Sening bag'ring tosh emish
Ko'zlaring beyosh emish



Misrada qizning balri toshga o'xshatilyapti va buning isboti sifatida ko'zlarini beyosh deb tasvirlayapti. Agar shoir dostonlarini badiiy vositalarning qo'llanilishi yuzasidan tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi holatlarni kuzatish mumkin bo'ladi: yozuvchining „Zaynab va Omon“ dostonida badiiy vositalardan o'xshatish, sifatlash ko'p qo'llanilgan holda jonlantirish, mubolag'a kabi tasviriy usullar ham uchraydi.

„Oygu bilan Baxtiyor „Semur“ dostonlarida esa aksincha keyingi ikki vosita ancha faol. Buning boisi keyingi ikki asrning folklor ana'alaridan foydalanilgan holda xalq og'zaki ijodi motivida yozilganligi, tasvirlanayotgan voqealarning mazmunan xalqning jonli turmushi tarzida mosligidandir. Ma'lumki jonlantirish va mubolag'a kabi badiiy san'atlar yozma badiiy ijodga emas, balki og'zaki badiiy ijodga ko'proq xoslanganligi bilan ajralib turadi. Badiiy vositalardan umuman til vositalaridan bu xilda foydalanishi ijodkorning so'z qo'llash mahoratini namoyon etadi.

Hamid Olimjon asarida qofiyaga ham alohida e'tibor bilan yondoshgan va bunda sheva unsurlaridan ham foydalangan.

Qofiyani undosh tovushlar va cho'ziq unlilar hosil qiladi.

Qofiyadosh so'zlarni aniqlashda meningcha, she'rdagi fonetik hodisalar, tovushlar takroriga emas ularning misradagi o'rniga qarab ish ko'rish lozim. Ohangdoshlik ikki jihatga ko'ra aniqlanadi:

1. ohangdoshlik misraning turli o'rnidagi so'zlarda sodir bo'lib, takror fonetik xususiyatli bo'lsa bu alliteratsiya deyiladi.

2. ohangdoshlik misraning aniq belgilangan o'rnida sodir bo'lib, fonetik, leksik, grammatik uylunlikni ifodalasa bu qofiya.

Sarvqomat Parizod

O'sdi g'amlardan ozod.

Ushbu jumlada o'cho'ziq unlisi va d undosh tovushi ohangdoshlikni yuzaga keltiryapti.

Gulzorlardan, bog'lardan o'tdim,

Bozorlardan tog'lardan o'tdim.

Zaynab va Omon dostonidan olingan parchada birinchi baytda oltita so'z qo'llanilgan bo'lib, ulardan to'rttasi-gulzor-bozor, bog'-tog' qofiyalangan. Ikkinchi baytda sakkizta so'z ishlatilib, kun-tun, botar-yotar so'zlari qofiyalangan, misralarni ikki bo'lakka turoqqa ajratgan. Qolgan to'rtta so'z radifdir. Bu baytdagi qofiyalanish tuzilishi jihatidan bir-biriga o'xshaganidek, bir-biridan farqlanadi ham. O'xshashlik



shundaki, har ikki baytda ham bir necha so'zlar qofiyalangan. Qofiyadosh so'zlardan keyin radif qo'llanilgan. Farqi shundaki, birinchi baytda radifdan boshqa barcha so'zlar misralarning har ikki qismi, qofiyadoshdir, qofiyalanishning bu turi mumtoz she'riyatda tarse deb yuritiladi. Radif esa birgina so'zdan iborat.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi misralardan ko'rinib turibdiki, qofiya she'riy nutqning ohangdorligini, jozibadorligini ta'minlabgina qolmaydi, balki, shoir tomonidan olg'a surilgan fikrni, mazmuni tushunish, asarning g'oyasini batafsil anglash imkoniyatini ham beradi. Shoir asarlarining asosiy qismini tashkil etgan umumozbek so'zlardan mohironalik bilan foydalangan. Ma'lum jamoa a'zolari uchun tushunarli bo'lgan va umumxalq tilida keng iste'mol qilinadigan lug'at tarkibining faol qatlamiga kiruvchi ishlab chiqarishning turli sohalari bilan bog'liq bo'lgan asl o'zbekcha so'zlar so'z san'atkorlarining ijodida, asarlarida o'rinli foydalanilgan. Ular poetik leksikamizning yanada sayqallanishida o'zining muhim ahamiyatini kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.S O'zbek tilining badiiy uslubi. Toshkent -1992, 33-bet.
2. Hamid Olimjon "Muqanna" Toshkent- 1992, 64-bet.
3. Hamid Olimjon Tanlangan asarlar Toshkent-2019. 65-bet
4. H. Jamolxonov Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent-2005. 85-bet